

**“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlar ijrosi to‘g‘risida  
TAHLILY MA‘LUMOT**

*2024 yil 27 aprel holatiga*

T/r	Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Mas‘ul ijrochilar	Amalga oshirilgan ishlar, tayyorlangan hujjat loyihalari (kimga, qachon kiritilganligi, xat raqami va sanasi)
<b>II. BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA‘MINLASH.</b>						
<b>47-maqсад: Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish.</b>						
<b>Ijro uchun asosiy mas‘ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi (B. Xodjaev)</b>						
<b>1</b>	<b>12. “Yoshlik” konini o‘zlashtirish” investitsiya loyihasi doirasida 60 mln tonna rudani qayta ishlash quvvatiga ega 3-mis boyitish fabrikasini to‘liq ishga tushirish.</b>	<b>1.</b> 3-mis boyitish fabrikasi uchun asosiy texnologik uskunalarni qurilish maydonchasiga yetkazish, o‘rnatish va montaj qilish ishlarini yakuniga yetkazish.	2024 yil sentyabr	Loyiha-smeta hujjatlari asosida (xorijiy bank kreditlari va o‘z mablag‘lari)	“Olmaliq KMK” AJ <b>A. Xursanov,</b>  Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi <b>B. Islamov</b>	<b><u>Bajarilmoqda.</u></b> Yangi 3-son mis boyitish fabrikasi (3-MBF) qurilish-montaj ishlari “Enter Engineering” Pte. Ltd. va “Uralmashzavod” OAJ bilan 2021 yil 21 sentyabrda tuzilgan YeRS-shartnomasi doirasida amalga oshirilmoqda. Obyektda tog‘-kon ishlari olib borilmoqda va bugungi kunga qadar 183,0 mln kub metrdan ortiq ishlar bajarildi. Yangi 3-son Mis boyitish fabrikasi va infratuzilmasi obyektlarini qurish bo‘yicha loyiha hujjatlarini ishlab chiqish ishlari amalga oshirilmoqda. Loyihalash ishlariga “Wood”, qurilishda texnik nazoratni amalga oshirishga “Worley Parsons” kompaniyalari jalb qilingan. Qurilish maydonida 18,4 mln m <sup>3</sup> (90 foiz) tuproq ishlari, 643,0 ming m <sup>3</sup> (85 foiz) beton ishlari, 92,2 ming tonna (90 foiz) armaturalash ishlari bajarildi va 11,6 ming tonna (37 foiz) asosiy texnologik uskunalari, 19,3 ming tonna (33 foiz) metall konstruksiyalar montaj qilindi.
		<b>2.</b> Rudani qayta ishlash yillik quvvati <b>60 mln tonna</b> bo‘lgan 3-mis boyitish fabrikasini foydalanishga topshirish.	2024 yil oktyabr	<b><u>Bajarilmoqda.</u></b> Yangi 3-son Mis boyitish fabrikasi belgilangan muddatda foydalanishga topshiriladi.		